

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| X.X.Abduraxmonov | |
| Yengil atletika mashqlari yordamida maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish | 199 |
| B.B.Umarov | |
| Abu Bakr narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi..... | 203 |
| R.Mardonov | |
| G'arb va sharq falsafasining pedagogik asoslari: tahlil va muhokama | 207 |
| X.O'Samatov | |
| Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi | 210 |
| Z.A.Boboyeva | |
| Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari..... | 217 |
| G.U.Radjabova | |
| Ta'lif tizimi va ta'lif xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari | 220 |
| N.N.Bobojonov | |
| Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari | 226 |
| E.S.Yuldashev | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli | 231 |
| N.V.Karimova | |
| Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid..... | 236 |
| A.M.Toshpo'latov | |
| Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi. | 241 |
| I.A.Maxmudova | |
| Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala sifatida | 247 |
| A.N.Qosimov | |
| Umumiy o'rta maktab o'quvchilari harakat faolligi va jismoniy tarbiyaga qizishini o'rganish | 250 |
| F.Sharipova | |
| Birinchi bosqich talabalariga klinik lug'atni o'rgatish | 255 |
| G.Ulug'bekova, Sh.Adhamov | |
| 7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligi o'sish dinamikasi | 260 |
| Z.Hamrayeva | |
| Qisqa masofalarga yugurishda qizlarda tezlik va quvvat fazilatlarini rivojlantirish metodikalari..... | 263 |
| U.Jabborov | |
| 11-12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida voleybol o'ynashning texnikaviy usullari | 269 |
| M.Kataeva | |
| Ta'lif jarayonida mobil ta'limning o'rni va ahamiyati | 275 |
| O.Yadgarova | |
| Shaxsn o'rganishda proyektiv metodikalarning diagnostik imkoniyatlari | 279 |
| I.Imomov | |
| Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida yuzaga keladigan nizolarni pedagogik tashxis etish | 283 |
| M.Babakulova, M.Radjabova | |
| Interfaol ta'lif texnologiyalari yordamida xitoy tilini o'rganish ko'nikmalarini oshirish | 288 |
| X.Tojiyev | |
| Bo'lajak harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik - pedagogik shart-sharoitlari | 292 |
| D.Buranova | |
| Tibbiyot uchun kommunikativ ingliz tili o'qitishning samarali metodi sifatida | 300 |
| D.Yo'idosheva | |
| Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari | 303 |
| G.Abdullayeva | |
| Psixologiya – chet tillarini o'rganishning asosiy jihat..... | 308 |

FARG'ONA VODIYSI ANTIK DAVR SHAHAR TOPOGRAFIYASINI O'RGANILISHIGA OID

К ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИЧЕСКОЙ ТОПОГРАФИИ АНТИЧНЫХ ГОРОДОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

SCIENTIFIC RESEARCH ON THE STUDY OF THE TOPOGRAPHY OF THE ANCIENT CITY OF THE FERGHANA VALLEY

Karimova Nazokat Voxidjon qizi¹

¹Karimova Nazokat Voxidjon qizi

– Farg'ona davlat universiteti, Jahon tarixi o'qituvchisi, arxeologiya yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya

Maqolada hozirgacha ilmiy adabiyotlarda ma'lum bo'lgan, Farg'ona vodiysining antik davrdagi tarixiy topografiyasi masalasi ko'rib chiqiladi. Millodning boshlari Yevroosiyo mintaqasida katta migratsiya davri hisoblanadi. Xitoy tarixiy manbalarida gunlar, xunlar yoki yuechilar Tyan-Shan tog'lari bo'ylab, sharqdan g'arbg'a qarab harakatlanishda davom etganlar. Buyuk ko'chishlar, xalqlarning qo'shilishi moddiy madaniyat va shaharsozlik tarixida katta o'zgarishlarga olib keladi. Albatta, bunday dunyoviy o'zgarishlar Farg'ona vodiysini ham chetlab o'tmadni. O'rta Osiyodagi mahalliy chorvadorlar madaniyatini o'rganish, asosan, qo'rg'onlarda olib borilgan tadqiqotlarga asoslanadi. Farg'ona vodiysining mashhur qadimiy shaharlari u yoki bu darajada saqlanib qolgan va o'rganilgan. Tarixiy topografiyani tiklash uchun tabiiy fanlar majmuasi - paleobotanika, paleozoologiya, gen injeneriyasi va iqlimshunoslik fanlarining xulosalarining natijasini talab qiladi.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос исторической топографии Ферганской долины в античности. Начало тысячелетия считается периодом великих миграций в евразийском регионе. В китайских исторических источниках Хунны, Гунны или Юэйчики продолжали двигаться с востока на запад по отрогам Тянь-Шаня. Великие миграции, смешение народов приводить к большим изменениям в материальной культуре и в истории градостроительства. Разумеется, такие мирские перемены не обошли стороной и Ферганской долины. Изучение культуры местных скотоводов Средней Азии в основном базируется на исследованиях, проводимых в курганных могильниках. Известные античные города Ферганской долины сохранились и обследованы в той или иной степени. Для восстановление исторической топографии необходимо результаты комплекс методов естественных наук - палеоботаники, палеозоологии, генное инженерии и климатологии.

Ключевые слова: Ферганская долина, Шўрабашат, Марҳамат, Мингтепа, Аксикент, историческая топография, ирригация, палеоботаника, ландшафт, погребальный обряд, керамика.

Abstract

The article covers the historiography of the ancient Ferghana Valley. The beginning of the millennium is considered a period of great migrations in the Eurasian region. In Chinese written sources, the Huns, Guns, or Yuechi continued to move from east to west or vice versa. The great migrations, the intermingling of peoples and peoples, will lead to great changes in the cultural world and geopolitics. Of course, such worldly changes did not bypass the Fergana Valley. Until now, the history of this period, its culture, is interpreted only on the basis of archaeological materials. The study of the culture of nomadic herders in Central Asia is mainly based on research conducted in burial mounds. As some of the uncovered ancient city ruins have been uncovered to one degree or another, the historical topography of the cities still cannot be fully revealed. Although these studies conducted until 2000s were a natural situation in their time, these conclusions are rare today. Because as a result of analyzing animal bones, plant remains and seeds, the role of natural factors in the crisis of climate change is a serious issue in front of science. In the reconstruction of ancient history, the origin of communities and peoples, genetic engineering is being restored based on modern anthropological analysis, and it is possible to trace the complete family tree of their migration issues.

Kalit so'zlar: Sho'rabschat, Marhamat, Mingtapa, Axsikent, B.A.Latinin, A.N.Bernshtam, B.A.Litvinskiy, Y.A.Zadneprovskiy, N.G.Gorbunova, mozor-qo'rg'onlar.

Ключевые слова: Шурабашат, Марҳамат, Мингтепа, Аксикент, Б.А.Латинин, А.Н.Бернштам, Б.А.Литвинский, Ю.А.Заднепровский, Н.Г.Горбунова, курганы, палеоботаника, палеозоология, палеоэкология, историческая топография.

Key words: Shuraboshat, Marhamat, Mingtapa, Axsikent, B.A.Latinin, A.N.Bernshtam, B.A.Litvinskiy, Y.A.Zadneprovskiy, N.G.Gorbunova, tombs, paleobotany, paleozoology, paleoecology, historical topography.

KIRISH

Mutaxasislar tomonidan birinchi marta o'rganish 1884–1885-yillari sharqshunos va arxeolog N.I.Veselovskiy O'rta Osiyo, xususan, Farg'ona vodiysida ilk arxeologik tadqiqot ishlari boshlandi. Arxeolog olim o'z diqqatini musulmonlik davri yodgorliklari hamda Kosonoy (Mug'), Axsikent, O'zganni tadqiq etishga qaratdi. Ayniqsa, N.I.Vaselovskiy Shimoliy Farg'onada joylashgan qadimiy mozorlardagi 30 ga yaqin qabrlarni qazib o'rganishi muhim tadqiqot sifatida tarixda ahamiyat kasb etdi.[1.5-6.] Lekin ushbu mozor-qo'rg'onlar qaysi shahar yodgorliklara tegishli ekanligi haqida fikrlar yuritmadi.

Farg'ona ekspeditsiyasi ilk boshliqlaridan B.A.Latinin asosiy e'tiborini bronza davri madaniyati yodgorliklarda chorvador va o'troq aholi madaniyatini qiyoslashga kirishdi.[16.1961.A] Farg'ona vodiysining Chust va Dalvarzintepadan chiqqan hayvon suyaklarini faqat yirik shoxli qoramol va mayda shoxli hayvonlarga ajratish bilan ijtimoiy-iqtisodiy hayot haqida xulosalar chiqarish bilan cheklanishdi. Farg'ona vodiysiga uyushtirilgan dastlabki ekspeditsiyalar 1930, 1933, 1934-yillar B.A.Latinin boshchiligidagi miloddan avvalgi I asrlar Farg'ona vodiysi yodgorliklарini ilmiy tadqiq etishga asos soldi.[15.1961.]

ADABIYOTLAR TAHЛИI

1939–1950-yillarda Farg'onada bir qator kanallar qurulishi natijasida ko'rib chiqilayotgan davr yuzasidan yirik materiallar to'plandi. Shu davrda arxeologik tadqiqotlarni olib borgan olimlar 1940-yil M.E.Masson, 1951-yil Y.G.G'ulomov, 1940–1951-yillar V.D.Jukov, 1940–1951-yillar T.G.Obolduyeva, 1953-yillarda Y.A.Zadneprovskiyalar vodiylar tarixini asori-atiqalarini arxeologik jihatdan o'rganishga juda katta hissa qo'shdilar.[11.31-44]

1930-yildan Leningrad Davlat Ermitaji xodimi B.A.Latinin Uchqo'rg'on elektr stansiyasi qurilishi munosabati bilan ushbu arxeolog olim qurilish yaqin yerlarda arxeologik kuzatuvlar olib bordi. O'zidan oldingi olib borilgan tadqiqotlardan farqli o'laroq B.A.Latinin musulmonlikkacha bo'lgan yodgorliklarni o'rganish bilan shug'ullandi. Uning eng katta xizmatlaridan biri hali fanga ma'lum bo'lmagan ko'plab yodgorliklarni aniqlaganligi, Farg'onaga xos bo'lgan qizil angobli va bo'yoq bilan, gul solingen sopol buyumlar majmuasi topilishi shular jumlasiga kiradi.[11.31-44] Bu arxeolog olimning yana bir xizmati u O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, yirik dehqonchilik hududining Farg'ona Vodiysidagi sug'orilish tarixini o'rganilishini boshlab berdi.[11.45] Bu sohani kelajakda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tdi.

1939–1940-yillarda O'zbekistonda ham yirik bunyodkorlik ishlari olib borildi. Ayniqsa suv inshootlari kanallar qurulishi avj oldi. Bular ichida Katta Farg'ona kanali qurulishi vaqtida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari o'z ko'lami bilan ajralib turadi. 270 km uzunlikdagi hududda qazish ishlari arxeologlar e'tiborida bo'ldi. Vodiyning qadimgi tarixi to'g'risda bebaho ma'lumotlar qo'liga kiritildi.[11.44-50]

1940-yil T.G.Obolduyeva Shimoliy Farg'ona kanali qurilishida, V.D.Jukov esa Janubiy Farg'ona qurilishida ana shunday arxeologik tadqiqotlarni olib boradilar. 1943–1940-yillari V.D.Gaydukevich Farhod elektr stansiyasi qurilishida ilmiy tadqiqot ishlarni olib bordi. Farg'ona vodiysining yuzlab yodgorliklardan dastlabki materiallar yig'ildi.[15.1961] Bu voqealar Farg'ona qadimgi tarixini asosli dalillar va arxeologik materiallar to'planishiga asos bo'lib xizmat qildi. To'plangan materiallar orasida antik davr yodgorliklari ham o'rganilgan, biroq keng qamrovli ishlar olib borilmadi.

TADQIQOT METODLARI

Urushdan keyingi 1946-yildan boshlab, yetti arxeologik dala mavsumi davomida Farg'ona vodiysida professor A.N.Bernshtam (1910-1956) arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Shu maqsadda 1950–1952-yillarda Pomir-Farg'ona kompleks arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etdi. Ekspeditsiya a'zolari olib borgan tadqiqotlari davomida qadimgi dehqonlar va chorvadorlar, shahar va qishloq xarobalarini bir xil darajada o'rgandi.[7.348] Agar N.I.Vaselovskiy asosan o'rta asr yodgorliklarni B.A.Latinin musulmonlikkacha bo'lgan davr yodgorligini o'rganishgan bo'lsalar A.N.Bernshtam keng qamrovli tadqiqotlar olib bordi. Farg'ona vodiysining qadimgi davr madaniyatlarini o'rganishga kirishdi. Masalan qadimgi tosh asridan to XVIII-XIX asrlargacha bo'lgan tarixiy yodgorliklarni o'rgandi. Farg'ona vodiysidagi yirik arxeologik yodgorliklar bo'lmish Eylaton yodgorligida, Mingtepa (Marhamat) da, Kosonda,Axsikentda, Quvada, O'zganda ilmiy tekshirish tadqiqotlarini olib bordi. Arxeologik ishlari natijasida A.N.Bernshtam yodgorliklarni tasnifini va qadimgi Farg'ona madaniyatlarining arxeologik davriyilagini ishlab chiqdi. Tarixiy yozma mabalarni qazishma natijalari bilan solishtirib ko'rish natijasida arxeologik xulosalar chiqardi. Bunday xulosalaridan biri qadim Farg'ona madaniyati va turmush tarzini ikki xil yo'nalishga bo'lgan bo'lib, dehqonchilik va

chorvachilik deb ta'kidlab o'tgan. Bir-biriga ta'siri to'g'risidagi g'oyalarni berib o'tadi.[16.1961A] Tekislik hududlarida, soy va daryo bo'yalarida dehqonchilik bilan shug'ullangan xalqlar yashagan bo'lsa, tog'li hududlarda o't-o'lalnlar ko'p yaylovlarda ko'chmanchi chorvadorlar istiqomat qilgan.[6.34] Bu tarixiy jarayon hozirgacha davom etib kelmoqda. A.N.Bernshtam xulosalarida keltirilgan fikrlarni undan keyin olib borilgan izlanishlarda o'z aksini topadi.

A.N.Bernshtam ekspeditsiyasi tomonidan olingan qadimgi Farg'ona madaniyati bo'yicha materiallarni yanada rivojlantirish Y.A.Zadneprovskiyning "Qadimgi Farg'ona" (1954-yil) mavzusidagi dissertatsiyasida keltirib o'tildi.[11.53]

1950-yillarda Farg'onaning qadimiy davri madaniyati bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi, ularda uchta Respublika – O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston arxeolog olimlari bilan bir qatorda markaziy muassasalar va mahalliy muzeylardan ekspeditsiyalarda qatnashuvchilar soni ko'pchilikni tashkil qildi. Tadqiqotning bu bosqichi 1954-yilda Sho'raboshat madaniyati yodgorliklari ilk temir davri, Oqtom qabristoni va katakomba qabrlari ko'p uchraydigan, Qorabuloq qabristonlari topilib, o'rganila boshlandi.[12.1988]

1954-yildan boshlab SSSR fanlar akademiyasi, Janubiy Qirg'iziston bo'limi va Qirg'iziston SSR Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot instituti Farg'ona sharqida joylashgan O'zgan vohasidagi Sho'raboshat manzilgohlarini o'rganishni boshlab yubordi. Natijada, Farg'ona madaniyati tarixida Eylatondan keyin, Marhamatdan oldin bo'lgan, Sho'robashat (miloddan avvalgi VI–I asrlar) deb nomlangan yangi davr alohida belgilab olindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg'ona vodiysini arxeologik o'rganish 1950–1960-yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Bu vaqtarda O'rta Osiyo Respublikalari Fanlar Akademiyasi qoshida ilmiy markazlar o'z hududlarida keng ko'lamli qidiruv tadqiqot ishlari olib borildilar. Tadqiqot ishlarida Sankt-Petrburgdagi Ermitaj, Arxeologiya instituti, Etnografiya instituti, Maskvada arxeologiya instituti kabilar viloyatlardagi o'lkashunoslik muzeylari bilan hamkorlikda faol qatnashdilar. Jumladan Andijon o'lkashunoslik muzeyida V.I.Kozenkova, Farg'onada N.G.Gorbunova, G.P.Ivonov, B.Z.Gamburg, Namanganda Y.G.Chulanov, O'shda Y.D.Baruzdin, A.I.Poshko vodiyya faol arxeologik tadqiqotlarni o'tkazishdi.[1.8]

Y.A.Zadneprovskiy (1956–1958-yillar), Y.D.Baruzdin (1960–1962-yillar) Sho'raboshat davri yodgorliklariga tegishli Qorabuloq va boshqa qabristonlardagi olib borgan arxeologik qazishmalari natijasida moddiy madaniyatning yangi turlarini (chetdan keltirilgan buyumlar, ipak, yog'och va boshqalar) ochib o'rgandi, qabrlarni qazish usullari sifatlari darajada yaxshilandi. Ko'p yillik dala tadqiqot ishlari natijasida qadimgi Farg'ona aholisi madaniyati boy bo'lganligi haqida ma'lumotlar to'plab o'rgandi.[4.43-82]

Farg'onaning janubiy g'arbiy qismidagi Isfara vodiysida E.A.Davidovich, B.A.Litvinskiylar 1955-yili tadqiqot ishlarini davom etirishdi. Keyinchalik B.A.Litvinskiy boshchiligidida Isfara vodiysi va Qoramazor tog'larida (Shimoliy-G'arbiy Farg'ona) antik davrga oid mozor-qo'rg'onlarini keng ko'lama arxeologik qazish ishlari olib borildi. Natijada, B.A.Litvinskiy vodiyning antik davr chorvadorlar madaniyati ilmiy tahlillar asosida yoritib berildi. B.A.Litvinskiy boshchiligidagi ekspeditsiya ko'chmanchi chorvadorlar madaniyatini asosan mozor-qo'rg'onlarni o'rganishga qaratdi. Garchi bu hududdan hunarmandlar mahsulotlari ko'p uchragan bo'lsada bu mozor-qo'rg'onlarni hech qaysi shahar xarobasiga bog'lanmadidi.

Qadimgi Farg'ona vodiysida joylashgan Quva vohasidagi antik davr yodgorliklarini o'rgangan V.D.Jukov 1957-yilda arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Sharqiy Farg'onadagi G'ayrattepa yodgorligida V.I.Kozenkova tomonidan arxeologik tadqiqotlar tashkil etildi. V.I.Kozenkova (1959–1964-yillar) bir qancha yangi yogorliklarni ko'rib chiqdi.[13.1964]

1962-yilidan boshlab N.G.Gorbunova boshchiligidagi Davlat Ermitajining Farg'ona ekspeditsiyasi o'z ishini boshladi. Farg'onaning turli hududlardagi antik davr manzilgohlarini va shu davrdagi qabristonlarni tizimli ravishda o'rgandi.[9.1962] N.G.Gorbunova Farg'ona vodiysida antik davr shaharlari mozor-qo'rg'onlarini birga o'rganib shaharsozlik tarixiy-topografiyasiga e'tibor qaratdi.

1964–1967-yillarda Andijon suv ombori hududida P.N.Kojemyako boshchiligidida Qirg'iziston arxeologlari tomonidan keng ko'lamli qazishmalar olib borilgan. Sho'raboshat madaniyatining Qulunchak manzilgohlarida olib borilgan tadqiqotlar katta qiziqish uyg'otadi.

Ilk temir davri miloddan avvalgi VI–IV asrlar yoki Eylaton madaniyati davridan qolgan yodgorliklarni ko'proq qabrlarni N.G.Gorbunova tomonidan keng o'rganildi. N.G.Gorbunova

tomonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Oqtom, Sufon, Ko'ngay, Valik kabi mozor-qo'rg'onlardan chorvadorlarning dafn marosimiga oid juda qimmatli ma'lumotlar olindi. Bundan tashqari bu davning yagona shahar xarobasi bo'lmish Eylatonda ham ma'lum darajada ishlar olib bordi, ammo yodgorlikni katta qismi buzib tashlanganligi bois uning tarixiy-topografiyasi to'liq ma'lumotlari batafsil yoritilmadi.[10.1976]

Y.A.Zadneprovskiy olib borgan ko'plab arxeologik izlanishlari natijasida Eylaton madaniyatidan keyingi davrda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar bilan bog'liq, Sho'raboshat madaniyati yodgorliklari ko'plab ochilib o'rganildi. Yaqin vaqtargacha Sho'raboshat yodgorliklari faqat vodiyni sharqiy rayonlari uchungina xos bo'lgan degan fikr bilan qaralar edi.[11.1962] Ammo keyingi yillardagi ilmiy arxeologik qidiruv ishlari bu fikrlarga tuzatishlar kiritildi: Sho'raboshat madaniyati yodgorliklari Qoradaryo va Norin daryolari o'ttasidagi hududidan asosiy yodgorlik bilan yangi topilgani orasida masofa 80 km chiqadigan hududda Yalpoqtepa yodgorligi topildi.[11.1962] Yana Sho'raboshat madaniyatiga xos materiallar Andijon shahri yaqinidan ham topilib qayd etilgan. Demak, bu madaniyat sohiblari vodiyni katta hududida miloddan avvalgi IV-I asrlariga oid. Bundan tashqari, Sho'raboshat madaniyatini o'rganish bo'yicha B.X.Matboboyev 1993-yili qo'shni Qирғизистон Respublikasida arxeologik qazishma ishlarini olib bordi.[16.59-63]

1960–1970-yillarda Y.D.Baruzdin O'sh viloyati Batken tumanida joylashgan millodiy III–V asriga oid yodgorlik hisoblangan Qorabuloq mozorini o'rgandi. Qorabuloq mozoridan topilgan mo'miyolangan jasadlar, ust-bosh qoldiqlari, yog'ochdan yasalgan buyumlar arxeologik olimlarni hayratga soldi.[1.11]

Farg'ona vodiysini o'rta asrlari haqida fikr yuritilganda, yozma manbalarda tilga olingen shaharlar: Axsikent, Bob yoki Pop, Quva va Marhamat shaharlarida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Axsikentda I.Ahrorov, A.Anorboyev boshchiligidagi keng ko'lamli ishlar olib bordi.[3.54] Axsikent materiallarini o'rgangan P.P.Gavryushenko 1970-yil dissertatsiyasida ko'rib chiqilgan.[3.58-59] Bu vohadagi ishlarni D.F.Vinnik davom ettirdi. 1968-yil o'z dissertatsiyasida Axsikent va unga qo'shni Shimoliy Farg'ona vohalarida o'rganib chiqdi. Farg'onanining janubi-g'arbiy qismida G.A.Brikina bir necha yillar davomida Qayrag'och manzilgohi va sinxron qabristonini tizimli ravishda o'rgandi.

Quva shahar xarobasida B.A.Bulatova, D.P.Varxotova arxeologik tadqiqot ishlari natijasida mashhur budda ibodatxonasi kovlab ochilishi ilm fanda katta yutuq edi.[1.12]

1987–1992-yillari qadimgi Pop shahrini o'rganish bo'yicha arxeologik tadqiqotlar natijasida: shahar o'rni, uni rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Qazishma olib borgan arxeolog olim B.X.Matboboyev fikriga ko'ra, Pop shahri vodiydagi ilk o'rta asr shaharlar qatoriga kiradi. Shahar o'z qabristoniga ega bo'lgan bo'lib, mozorlari bizgacha yetib kelgan. Mozorni mahalliy xalq Munchoqtepa deb atashgan. 1988-yillarda ommaviy axborot vositalarida shov-shuvlarga sabab bo'lgan yer osti sag'analari topilib tadqiq etilgan. Sag'analardan juda yaxshi saqlangan oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-yarog'lar va boshqa topilgan buyumlar sobiq ittifoqdagi 1988-yilgi to'rt mashhur topilmalardan biri deb baholandi.[18.124-140]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Farg'ona vodiysining antik davr yodgorliklarini o'rganishda quyidagi asosiy dolzarb masalalar kun tartibiga chiqmoqda.

1. Vodiylar antik davr tarixiy-topografiyasi borasida yaqin yillarda o'zbek-xitoy qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan Mingtepani tashqi mudofaa devorini aniqlaganligi antik davr shaharsozligida chorvadorlarga xos keng maydonni (270-320 ga) o'rab olingenligi aniqlandi. Mingtepa turidagi Axsikent va Quva shahar xarobalarining tashqi devorlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin. Vodiyning antik davr qishloq va shaharlar tarixiy-topografiyasida muhim o'rin egallagan ularning qabristonlari hozirgacha bir majmua sifatida o'rganilmaganligi muammoligicha qolib kelmoqda.

2. O'tgan asrning 70–80-yillarigacha arxeologiya fanida qo'llanilayotgan tabiiy fanlarni tahlil natijalarini qo'llash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Millodiy eranining boshlariga xos inqiroz davri buyuk ko'chishlar sabablarini (paleobotanika), iqlim o'zgarishlari va antropologik materiallarni enjeneriyasi yoki hayvon suyaklaridan genetik ma'lumotlar olingani yo'q. Bu tahlillar antik davr Farg'ona tarixiy-topografiyasini o'rganishda muhim aniqliklar kiritadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matboboyev B. X. Shamsutdinov R. T. Mamajonov A. Buyuk Ipak yo'lidagi Farg'ona shaharlari. Andijon.: Meros, 1994.
2. Зохир Альам Кадимги тарихчилар Урта Осие хакида. Тошкент.: Юрист медиа маркази, 2008.
3. Ахроров И. Археологические исследования городища Ахсикент в 1960 году // Общественные науки в Узбекистане. 1962.-№8.
4. Баруздин Ю.Д. Карабулакский могильник// ИАН Киргизской ССР. Серия общественных наук. ТомIII. Вып.3. (История). – Фрунзе, 1961.
5. Берништам. А. Кухна Фаргона. Тошкент.: 1951
6. Берништам А.Н. Древняя Фергана (научно-популярный). Тошкент. 1951.
7. Берништам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-шаня и Памиро-Алая. / МИА №26. М.-Л.: 1952.
8. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том 1. Москва-Ленинград. 1950.
9. Горбунова Н.Г. Культура Ферганы в эпоху раннего железа // АСГЭ. Вып.5. – Л.: Искусство, 1962
10. Горбунова Н.Г. Фергана по сведениям античных авторов // История и культура народов Средней Азии (Древность и средние века). - М.: Наука, 1976.
11. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. Москва.: Наука. 1962.
12. Заднепровский Ю.А. Основные земледельческие области Средней Азии в эпоху бронзы - раннего железа // Природа и человек. - М., 1988
13. Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшеба. – Ташкент, 2000.
14. Козенкова В.И. Гират тепа (к истории поселени Ферганы 1 половины 1 тыс. н.э. // СА, 31964.
15. Латынин Б.А. Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 г. // АСГЭ. Вып. 3. -Л.: Искусство, 1961.
16. Латынин Б.А. Вопросы хронологии земледельческих культур древней Ферганы // Исследования по археологии СССР. - Л., 1961А.
17. Матбабаев Б.Х. О возникновении и этапах развития города Поп(Баб) // ОНУз. №8. –Ташкент.: 1994.
18. Матбабаев Б.Х. Могильник Мунчактепа в Северной Фергане (Узбекистан) // РА. №3. – М., 1999.